

## **Chet tillari o‘qituvchilarining oylik maoshlariga ustama haq belgilash uchun o‘tkaziladigan test sinovlari haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda PQ-1875-sonli “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq chet tillari o‘qituvchilarining oylik maoshlariga ustama haq belgilash nazarda tutilgan. Ustama haq belgilashning shartlaridan biri – Davlat test markazi tomonidan o‘tkaziladigan test sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tishdir. Test sinovlari Davlat test markazining 2013 yil 10 oktyabrda 01-339-sonli bo‘yruq‘i bilan tasdiqlangan, Adliya vazirligida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Chet tillar o‘qituvchilarining bazaviy lavozim maoshlariga oylik ustama belgilash uchun test sinovlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” asosida o‘tkazilmoqda. Test sinovlaridan o‘tish uchun o‘qituvchilar har yili aprel va noyabr oylariga ariza berish imkoniyatiga ega. 2015 yilda aprel oyida 1880 nafar o‘qituvchilar test sinovida ishtirok etish uchun ariza bergan bo‘lsada shu yilning noyabr oyida ushbu ko‘rsatkich 4581 nafarni tashkil etdi. Jumladan xalq ta‘limi tizimi bo‘yicha aprelda 675 nafar o‘qituvchilar ariza topshirgan, noyabr oyida esa mazkur ko‘rsatkich 3237 taga oshgan. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi tizimidan aprel oyida 804 nafar test sinovida ishtirok etgan, noyabrda ushbu ko‘rsatkich 160 taga kamaygan.

Bugungi kunda joriy yilning may-iyun oylariga o‘tkaziladigan test sinovlariga tayyorgarlik ko‘rilmoqda va aprel oyida test sinovida ishtirok etish uchun ariza beradigan o‘qituvchilar soni ko‘payishi kutilmoqda.

Chet tillari o‘qituvchilarining oylik maoshlariga ustama haq belgilash huquqini beruvchi test sinovlari bo‘yicha statistik ma‘lumotlar

Ko‘rsatkichlar	2015 yilda	
	aprel oyida	noyabr oyida
Jami test sinovida ishtirok etganlar	1880	4581
Jumladan		
xalq ta‘limi tizimidan	675	3912
O‘MKHT tizimidan	804	644
oliy ta‘lim tizimidan	401	25

## **Чет тиллари ўқитувчиларининг ойлик маошларига устама ҳақ белгилаш учун ўтказиладиган тест синовлари ҳақида**

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 10 декабрдаги ПҚ-1875-сонли “Чет тилларни ўрганиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорига мувофиқ чет тиллари ўқитувчиларининг ойлик маошларига устама ҳақ белгилаш назарда тутилган. Устама ҳақ белгилашнинг шартларидан бири – Давлат тест маркази томонидан ўтказиладиган тест синовларидан муваффақиятли ўтишдир. Тест синовлари Давлат тест марказининг 2013 йил 10 октябрдаги 01-339-сонли буйруғи билан тасдиқланган, Адлия вазирлигида давлат рўйхатидан ўтказилган “Чет тиллар ўқитувчиларининг базавий лавозим маошларига ойлик устама белгилаш учун тест синовларини ўтказиш тартиби тўғрисидаги Низом” асосида ўтказилмоқда. Тест синовларидан ўтиш учун ўқитувчилар ҳар йили апрель ва ноябрь ойларига ариза бериш имкониятига эга. 2015 йилда апрель ойида 1880 нафар ўқитувчилар тест синовидан иштирок этиш учун ариза берган бўлсада шу йилнинг ноябрь ойида ушбу кўрсаткич 4581 нафарни ташкил этди. Жумладан халқ таълими тизими бўйича апрелда 675 нафар ўқитувчилар ариза топширган, ноябрь ойида эса мазкур кўрсаткич 3237 тага ошган. Ўрта махсус, касб-ҳунар таълими тизимидан апрель ойида 804 нафар тест синовидан иштирок этган, ноябрда ушбу кўрсаткич 160 тага камайган.

Бугунги кунда жорий йилнинг май-июн ойларига ўтказиладиган тест синовларига тайёргарлик кўрилмоқда ва апрель ойида тест синовидан иштирок этиш учун ариза берадиган ўқитувчилар сони кўпайиши кутилмоқда.

Чет тиллари ўқитувчиларининг ойлик маошларига устама ҳақ белгилаш ҳуқуқини берувчи тест синовлари бўйича статистик маълумотлар

Кўрсаткичлар	2015 йилда	
	апрель ойида	ноябрь ойида
Жами тест синовидан иштирок этганлар	1880	4581
Жумладан		
халқ таълими тизимидан	675	3912
ЎМКХТ тизимидан	804	644
олий таълим тизимидан	401	25